IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 24. Issue 01. Oktabr, 2026

SOVET DAVRIDA ANDIJON VILOYATIDA KUTUBXONA XIZMATINING RIVOJLANISHI VA HUDUDIY XUSUSIYATLARI (1925–1991-YILLAR)

Komilov Muhiddin Baxriddin o‘g‘li
Tadqiqotchi
e-mail: komilovmuhiddin028@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23324685

Annotatsiya. Maqolada 1925–1991-yillarda hozirgi Andijon viloyati hududida kutubxona xizmatining shakllanishi, muassasalar tarmog‘ining kengayishi va hududiy tashkil etilishidagi o`zgarishlar tarixiy jihatdan o`rganiladi. 1941-yilda Andijon viloyatining ma’muriy birlik sifatida tuzilishi tadqiqotning davrlashtirish mezoni qilib olinadi. Shu bilan birga, shahar markazlari va qishloq aholi punktlarining moddiy-texnik imkoniyatlari bir xil bo`lmagan, kutubxonalar esa ta’limiy-ma’rifiy vazifalar bilan bir qatorda hukmron mafkura tarqatilishi tizimiga ham kiritilgan. Tadqiqot kutubxona xizmatining rivojlanishini faqat muassasalar soni bilan emas, xizmat qamrovi, fond, kadrlar hamda hududiy foydalanish imkoniyati orqali baholash zarurligini ko‘rsatadi.
Kalit so‘zlar: Andijon viloyati, sovet davri, kutubxona xizmati, madaniy-ma’rifiy siyosat, qishloq kutubxonalari, markazlashtirilgan kutubxonalar tizimi, kitob fondi, kitobxonlar qamrovi, hududiy tafovut.

Abstract. The article examines the historical development of library services in the territory of the present-day Andijan region in 1925–1991, the expansion of the network of institutions, and changes in territorial organization. The formation of Andijan region as an administrative unit in 1941 is taken as the periodization criterion for the study. At the same time, the material and technical capabilities of urban centers and rural settlements were not the same, and libraries, along with educational and educational tasks, were also included in the system of dissemination of the dominant ideology. The study shows the need to assess the development of library services not only by the number of institutions, but also by the scope of services, funds, personnel, and territorial accessibility.
Keywords: Andijan Region, Soviet period, library services, cultural policy, rural libraries, centralization, book collections, regional inequality.

KIRISH

Kutubxonalar faoliyati tarixini o`rganish jamiyatning madaniy hayotidagi o`zgarishlarni, savodxonlikning kengayishini, ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarining axborotga bo`lgan ehtiyojini aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, sovet davrida kutubxonachilik tizimi madaniy xizmat ko`rsatish muassasasi sifatida ham, siyosiy-tarbiyaviy boshqaruv mexanizmining tarkibiy qismi sifatida ham rivojlandi.

Andijon viloyati bu jihatdan alohida tadqiqot maydonini tashkil etadi. Viloyat markazida XX asr boshlaridayoq ommaviy kutubxona shakllangan bo`lsa, sanoat markazlari, shaharchalar va qishloqlarda kitob tarqatishning boshqa tashkiliy shakllari rivojlangan. Tadqiqotning maqsadi 1925–1991-yillarda Andijon hududida kutubxona xizmatining tashkiliy taraqqiyot bosqichlarini aniqlash, fond va kitobxonlarga xizmat ko`rsatish ko`rsatkichlaridagi o`zgarishlarni tahlil qilish hamda shahar-qishloq kesimidagi farqlarni tarixiy-geografik yondashuv asosida izohlashdan iborat. Mavzuning o‘rganilishida kutubxona ishi tarixi bo‘yicha umumlashtiruvchi tadqiqotlar, xususan, Z. Sh. Berdiyevaning qo‘llanmasi muhimdir [2]. B. A. Yunusovaning 1917–1941-yillarda Farg‘ona oblastida kutubxonachilik haqidagi maqolasi erta sovet bosqichi uchun mintaqaviy qiyoslash imkonini beradi [3]. O. Axunjanovaning Andijon kutubxonalari tizimini markazlashtirishga bag`ishlangan retrospektiv maqolasida esa 1975–1984-yillarga oid statistik va tashkiliy ma’lumotlar qayd etilgan [4]. Ushbu tadqiqotlarning ko`pchiligida umumrespublika yoki muassasa tarixi ustun bo`lib, Andijon hududining turli turdagi aholi punktlarida kutubxona xizmatini qiyosiy tahlil qilish masalasi qo`shimcha tadqiqotni talab qiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR (MATERIALS AND METHODS)

Tadqiqot tarixiylik, xolislik, tizimlilik va qiyosiy tahlil prinsiplari asosida olib borildi. Asosiy manba guruhlari: 1941-yildagi viloyat tuzilishiga oid huquqiy hujjat [1]; kutubxona tarixiga oid o‘quv va ilmiy nashrlar [2; 3]; Andijon viloyat kutubxonasi xodimlari tomonidan chop etilgan retrospektiv tarixiy materiallar va ular orqali ochiqlangan 1975, 1980, 1981 hamda 1984-yillarga doir statistik ko‘rsatkichlar [4]; Bobur nomidagi kutubxonaning 1992-yil boshidagi fondi haqida e’lon qilingan ma’lumotlar [5] va umumrespublika kutubxonachiligi tarixi bo‘yicha nashrlar [6].

Tarixiy-qiyosiy metod kutubxona fondi, xizmat ko`rsatilgan kitobxonlar soni va o`qish qamrovi dinamikasiga tatbiq etildi. Hududiy yondashuvda viloyat markazi, tuman markazlari va qishloq filiallari alohida xizmat darajalari sifatida ajratildi.

NATIJALAR

Sovet davrining dastlabki bosqichini tushunish uchun Andijondagi kutubxonachilik an’analarining XX asr boshlaridagi shakllanishiga murojaat qilish o`rinlidir. Z. Sh. Berdiyeva ma’lumotiga ko`ra, Andijonda 1907-yili jamoatchilik mablag`i hisobidan 387 nusxa kitobli ommaviy qiroatxona ish boshlagan. 1921-yilda u mahalliy ma’rifatchilik an’analari bilan bog`liq «Turon» kutubxonasi bilan birlashtirilib, shahar kutubxonasi maqomini olgan. 1922-yilga kelib unda o`n mingga yaqin kitob va davriy nashrlar to`plangan [2]. Ushbu ma’lumotlar 1925-yildan boshlangan jarayonlar bo`sh maydonda emas, avvalgi shahar ma’rifat muhitida yuz berganini ko`rsatadi.

1920–1930-yillarda maktablar, savodxonlik kurslari, klublar, ishlab chiqarish jamoalari va qiroatxonalar orqali kitob tarqatish amaliyoti kengaygan. 1940-yilda Andijonda 15 ta kutubxona mavjudligi, ishlab chiqarish korxonalari huzurida kichik kutubxonalar ham faoliyat yuritgani haqidagi ma’lumot shu yo`nalishdagi o‘zgarishni ko‘rsatadi [7]. Mazkur raqam manbada «Andijon» sifatida qayd qilingan bo`lib, uni 1941-yilda tuzilgan viloyatning barcha hududlariga tatbiq qilish mumkin emas. Respublika bo`yicha kutubxonalar sonining ortishi haqidagi ma’lumotlar ham hududiy ko`rsatkichlar bilan aralashtirilmasligi kerak.

Kutubxona muassasalari kengayishining ijtimoiy natijasi aholi uchun bosma axborotdan foydalanishning yangi kanallari paydo bo`lganida ko`rinadi. Shu bilan birga, erta sovet davri manbalarida madaniy-ma'rifiy ishlar siyosiy targ`ibot bilan bog`langan: partiya klublari, qizil choyxonalar, jamoat o`qishlari va kitob ko`rgazmalaridan hukmron siyosiy qarashlarni yoyish maqsadida ham foydalanilgan [3; 7]. Bu vaziyat kutubxonalarning ikki tomonlama xususiyatini — ma'rifiy foyda va mafkuraviy nazoratni — ko`rsatadi. Qizil choyxonalar sonini kutubxonalar soniga qo`shib yuborish noto`g`ri: ular kitob mutolaasi bilan bog`liq bo‘lsa-da, alohida turdagi madaniy muassasalar edi.

1941-yil 6-martda Andijon viloyatining tashkil etilishi hududni boshqarish tizimida yangi bosqichni boshlab berdi [1]. Shundan so`ng avvalgi shahar kutubxonasiga viloyat kutubxonasi maqomi berilgan [2]. Mazkur o`zgarish faqat nom bilan cheklanmagan: viloyat markazidagi kutubxonaning metodik va tashkiliy mas'uliyati kengayishi uchun ma'muriy asos vujudga kelgan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida O`zbekiston SSR kutubxonalari umuman olganda nashrlarni saqlash, kitobxonlarni zarur ma'lumotlar bilan ta'minlash va ommaviy tadbirlarga axborot tayyorlash vazifalarini bajargan. Respublika miqyosidagi urush davri kutubxonachiligi tadqiqotlarida madaniy-ma'rifiy xizmat va siyosiy targ`ibotning o`zaro birikib ketgani ta'kidlanadi [8]. Bu umumiy kontekst Andijondagi kutubxonachilik holatini tushuntirish uchun ahamiyatli, ammo urush yillarida aynan Andijon tumanlarida kutubxonalar soni yoki kitob berish hajmi qancha bo`lganini bu dalillar asosida aniq belgilab bo‘lmaydi.

Urush davri va urushdan keyingi dastlabki yillar haqida mahalliy ma'lumotlarning cheklanganligi xronologik uzilish hosil qiladi. Urushdan keyin viloyat kutubxonasining kitob fondini to`ldirish va mavjud adabiyotlarni tartibga solish ishlariga e'tibor kuchaygan. Berdiyeva ma'lumotiga ko`ra, 1950–1960-yillarda fond kutubxona kollektori va mahalliy kitob do`konlaridan keltirilgan adabiyotlar bilan boyitilib, eskirgan nashrlarni hisobdan chiqarish ishlari ham olib borilgan [2]. Bu jarayon xizmat sifatini yaxshilash maqsadidagi saralash, saqlash va hisobni yuritish ishlarining bir qismi bo`lgan. Shu bilan birga, davr mafkuraviy mezonlari kitob fondining tarkibiga ham ta'sir etganligini inkor qilib bo`lmaydi.

1966-yilda viloyat kutubxonasi 500 ming nusxa adabiyot saqlashga mo`ljallangan yangi binoga ega bo`lgan va unga Zahiriddin Muhammad Bobur nomi berilgan [2]. Bu yerda 500 ming ko`rsatkichi mavjud kitoblarning aniq soni emas, balki yangi bino loyihaviy sig`imini ifodalaydi. Binoning kengayishi o`quv zallari, fondlarni joylashtirish, bibliografik xizmat va kitob berishni rivojlantirish uchun institutsional zamin yaratgan.

1974-yilda ittifoq miqyosida kutubxonalarning mehnatkashlarni kommunistik tarbiyalash hamda ilmiy-texnik taraqqiyotdagi rolini kuchaytirishga doir qaror qabul qilingan. Uning ortidan turli tuman va qishloq kutubxonalarini yagona boshqaruv, budjet, kadrlar hisobi hamda fondlarni markazlashgan holda jamlash va qayta ishlash tizimiga birlashtirish jarayoni tezlashgan [4]. Andijon viloyatidagi bu o`zgarish faqat ma'muriy nom almashinuvi bo`lmay, kitobning kelib tushishi, kataloglashtirilishi va tarmoqlar o`rtasida taqsimlanish tartibiga ham ta'sir ko`rsatgan.

O. Axunjanova keltirgan ma'lumotda 1975-yil 1-yanvar holatida viloyatdagi Madaniyat vazirligi tizimiga mansub, viloyat va ko`zi ojizlar kutubxonalari hisobga olinmagan 361 ta kutubxonada 3 051 100 nusxa adabiyot borligi va 245 ming nafardan ortiq kitobxonga xizmat ko`rsatilgani qayd qilingan [4]. Shu maqolada 1975 va 1980-yillar uchun boshqa, o`zaro

taqqoslanadigan markazlashtirilgan tizim ko`rsatkichlari ham berilgan. Ulardagi 1975-yil fondi 2 981 500 nusxani tashkil etadi. Bu ikki bazaviy raqam o`rtasidagi farq manbada turlicha hisobga olingan muassasalar va hisobot doirasini aniqlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Xuddi shu tarixiy xotira materialida o`sha davrda 885 nafar kutubxona xodimi ishlagani, ulardan 314 nafari (35,5 foizi) oliy yoki o`rta maxsus kutubxonachilik ma’lumotiga ega bo`lgani keltiriladi [4]. Bu raqamning o`zi xizmat ko`rsatuvchi xodimlar soni sezilarli bo`lganini ko‘rsatadi. Biroq malakali mutaxassislar salmog`i uchdan bir qismdan sal ko`proq ekani tayyorlangan kadrlar bilan ta’minlash muammosi saqlanganini bildiradi.

Markazlashtirishning hududiy natijalari qishloq kutubxonalarida aniqroq ko`rinadi. O. Axunjanova ma’lumotiga ko`ra, 13 ta markaziy tuman kutubxonasidan beshtasi namunaviy binoga ega bo`lgan, ikkitasi kapital ta’mirdan chiqarilib kengaytirilgan, shuningdek, 215 ta qishloq kutubxonasi ta’mirlanib, texnik jihatdan qayta jihozlangan.

1980-yillarning ikkinchi yarmida sovet jamiyatida yuzaga kelgan oshkoralik, ijtimoiy fikrning faollashuvi va tarixiy xotiraga qiziqish kutubxonalarning axborot berish vazifalarini qayta ko`rib chiqish uchun umumiy sharoit yaratdi. Shunga qaramay, mavjud ochiq manbalarda Andijon tumanlari bo`yicha 1985–1991-yillar kesimidagi bir xil usulda tuzilgan kitobxonlar, fond va kitob berish ko`rsatkichlari yetarli emas. Shu bois ushbu bosqich uchun viloyat bo`yicha o`sish yoki pasayish sur’atlarini sun’iy ravishda hisoblash mumkin emas.

MUHOKAMA

O`rganilgan materiallar kutubxonachilik taraqqiyotini bir yoqlama ijobiy yoki salbiy jarayon sifatida baholash yetarli emasligini ko`rsatadi. Bir tomondan, Andijon shahridagi dastlabki ommaviy qiroatxonaning viloyat miqyosidagi yirik kutubxonaga aylanishi, maxsus bino qurilishi, markazlashgan fond va kataloglar joriy etilishi hamda qishloq filiallarining moddiy bazasi mustahkamlanishi o`qish imkoniyatlarini kengaytirgan. Ikkinchi tomondan, sovet kutubxonalari partiyaviy-mafkuraviy vazifalar bilan cheklangan, adabiyotlarni tanlash va targ`ib qilish madaniy talablargina emas, davr siyosiy mezonlariga ham bo`ysungan [3; 4; 7].

1975–1980-yillardagi statistika faqat hajm o`sishini emas, o`zaro bog`liq ikki jarayonni namoyon qiladi: kutubxonalar fondining markazlashuvi va undan foydalanish ko`rsatkichlarining yuqorilashi. Fond hajmi 92,3 foiz o`sgani holda kitobxonlar soni 73,5 foiz ko`paygan. [4]. Kutubxona ishini baholashda fond va foydalanish ko`rsatkichlarini kadr tayyorgarligi bilan birga talqin etish zarur.

Markazlashtirishning samaradorligi hududiy tenglik bilan aynan bir ma’noni anglatmaydi. Barcha kutubxonalar yagona boshqaruv ostida ishlagani ularning binolari, o`quv zallari, yetkazib berish imkoniyatlari va mutaxassislar ta’minoti bir xil bo`lganini bildirmaydi. Aksincha, 215 ta qishloq kutubxonasini qayta jihozlash va ayrim tuman markazlariga yangi binolar berish haqidagi ma’lumotlar hududiy infratuzilmani yaxshilash ehtiyoji kuchli bo`lganini tasdiqlaydi [4]. Shuning uchun umumviloyat o`rtacha ko`rsatkichlari bilan tumanlar kesimidagi xizmat sifati o`rtasida ehtimoliy tafovut mavjud bo`lishi tarixiy mantiqqa mos keladi. Keyingi tadqiqotlar uchun Andijon viloyati davlat arxivi va kutubxona arxivlaridan 1941–1991-yillardagi yillik hisobotlar, kitob fondi hisob-kitob daftarlari, tuman madaniyat bo‘limlarining shtat jadvallari, o‘quv zallari va ko‘chma xizmat haqidagi ma’lumotlar hamda aholi punktlari kesimidagi kutubxona xaritalarini jamlash maqsadga muvofiq. Ayniqsa, Andijon shahri bilan Asaka,

Shahrixon, Qo`rg`ontepa, Xo`jaobod va boshqa hududlar bo`yicha o‘zaro mos raqamli qatorlar yaratilsa, xizmatning real hududiy tafovutini solishtirish imkoniyati tug‘iladi.

XULOSA

1925–1991-yillarda Andijon hududida kutubxona xizmati bir necha bosqichni bosib o`tdi. XX asr boshlarida shakllangan shahar qiroatxonasi sovet davrida ommaviy xizmat ko`rsatish tizimi tarkibiga qo`shildi, 1941-yilda viloyatning tashkil etilishi bilan viloyat kutubxonasi maqomini oldi, 1950–1960-yillarda esa yangi fond va bino imkoniyatlari hisobiga mustahkamlandi. 1970-yillarda markazlashtirish jarayoni fondlarni jamlash va kitobxonlarga xizmatni muvofiqlashtirishni yangi tashkiliy bosqichga olib chiqdi.

1975–1980-yillarga oid qiyosiy ma’lumotlarda umumiy kitob fondining 92,3 foizga, xizmat ko`rsatilgan kitobxonlar sonining 73,5 foizga o`sishi qayd etiladi. Bu natija kutubxona tarmog`i institutsional jihatdan kengayganini ko`rsatadi. Biroq umumviloyat statistikasidan kelib chiqib, barcha tumanlar aholisi kitobdan teng foydalanish imkoniga ega bo`lgan degan qat’iy fikr bildirish mumkin emas. Ayniqsa, qishloq joylarda kutubxona binolari va jihozlarini yangilash ishlari hududiy ta’minot masalasi dolzarb bo`lib qolganini bildiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

1. SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1941-yil 6-martdagi Andijon, Namangan va Surxondaryo viloyatlarini tashkil etish haqidagi Farmoni. 1956-yilgi hujjatlar to‘plamida chop etilgan matnning elektron nusxasi.
2. https://ru.wikisource.org/wiki/Указ_Президиума_ВС_СССР_от_06.03.1941_об_образовании_Андижанской,_Наманганской_и_Сурхан-Дарьинской_областей_в_составе_Узбекской_ССР
3. Berdiyeva Z. Sh. Kutubxonashunoslik. 2-nashr. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2013. – 397 b. (Andijon viloyat kutubxonasi tarixi bo‘limi).https://library.tdau.uz/uz/books/8424
4. Yunusova B. A. Farg‘ona oblastida 1917–1941-yillarda kutubxona ishi // Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar. – 2026. – J. 8, № 8. – B. 971–977. DOI: 10.70728/a.series.ijt.v08.i08.020.
5. https://journals-kokandsu.uz/index.php/kspi/article/view/4854
6. Ахунжанова О. История библиотеки с первых уст // «Bobur kutubxonasi». – 2023. – № 1. (1975–1984-yilgi kutubxonalar tarmog‘i statistikasi va 1981/1984-yil hisobotlariga tayanuvchi retrospektiv maqola).
7. https://jurnal.libbobur.uz/Jurnal/2023-yil%201-son.pdf
8. Bobur kutubxonasi: ma’naviy-ma’rifiy jurnal. – Andijon, 2022. – № 1. – B. 22–25
9. https://fliphtml5.com/abvmh/qtjt/1-soni_2022_yil/
10. O‘zbekiston Milliy kutubxonasining tarixiga oid ma’lumotlar. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining rasmiy sahifasi.
11. https://aoka.uz/organ/6
12. Farg‘ona vodiysi shaharlari madaniy-ma’rifiy muassasalari tarixiga doir elektron o‘quv materiali. – ZiyoNET, – B. 61.
13. https://api.ziyonet.uz/uploads/books/25896/5683b1efacc68.pdf

14. Olimjonov X. O‘zbekiston SSRda kutubxona ishi tarixi (Ikkinchi jahon urushi yillari) // O‘zMU xabarlari. Ijtimoiy-gumanitar fanlar. – 2026. – № 1.8. DOI: 10.69617/nuuz.v1i1.8.12734.
15. https://journals.nuu.uz/index.php/actanuuz/article/view/12734
16. «Информационно-библиотечный центр им. Бабура»: viloyat kutubxonasi rivojlanishi va faoliyati haqida tarixiy ma’lumotlarni jamlagan elektron nashr (1967-yildan shahar abonementi to‘g‘risida).
17. https://ronl.org/referaty/raznoe/587479/